



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2025
1/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Musayev N.U. – t.f.d., prof.

Urakov D.J. – t.f.d., prof.

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.

Yermetov A.A. – t.f.d., prof.

Zuyev A.S. – t.f.d., prof.

Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.

Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.

Miroslav Ballay – PhD, prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

Sayidova M. Manaviy-madaniy deformatsiyalashuvni targ'ib etuvchi texnologik vositalar va ularning ijtimoiy pedagogik oqibatlari	186
Salimova N. Peculiarities of utilizing video in english lessons	189
Salimova Sh. Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashda emotsiyalarning ahamiyatli jihatlarini	192
Seydabullayeva N. Millatni asrash masalasi globallashuv davri sharoitidagi dolzarbligi	195
Tadjibayeva D. Globallashuv jarayonlarining yoshlar hayotiga ijobiy va salbiy ta'siri	197
Tangirov I. Zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosatshunoslik fanining o'rni	200
Tangirova D. Modernizm metodining paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan oqimlar	203
Tursunov A. Islom dinida ekologik va estetik ongning shakllantirishdagi asosiy g'oyalar	206
Tursunova L. Go'zallikning mohiyatini tushunishda estetikaning o'rni	209
Tursunova O. Mahalla – yoshlar ma'naviy tarbiyasining o'chog'i	212
Xasanov O. Yosh futbolchilarni saralashda ularni psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish (Futbol akademiyalari misolida)	215
Xojiqulov N. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga oid qarashlarining o'ziga xosligi	219
Xoliqulov M. Markaziy Osiyo davlatlari geomafkuraviy siyosatining rivojlanish tendensiyalari	222
Xolov Sh. Iqtisodiy taraqqiyot omillari: iqtisodiy- falsafiy talqin	225
Khudayberganov G., Khudayberganova M. Discursive teaching methodology for ecology students	228
Xudayberdiyev E. Atom fizikasida korpuskulyar – to'liq dualizmini ichki integratsiya asosida o'qitish metodikasi	231
Xudoyarov J. Turon madaniyatining jahon madaniyatidagi o'rni	234
Xujanov E. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ixtisoslik fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	237
Hakimova D. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini shakllantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari	240
Hamroyev S., Umarova G., Dalimova S. Biologiya darslarida biokimyo to'garaklari orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari	242
Xamraxonova N. Bolalik Roald Dal nigohida: bola qahramonlar tipologiyasi, ichki dunyosi va ijtimoiylik tahlili	245
Sharipova G. Sa'diy Sheroziyning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir qarashlarining ustuvor yo'nalishlari	248
Шахмурова Г. Искусственный интеллект в обучении естественным наукам	251
Sheraliyev N. O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining madaniy sohadagi hamkorligi	254
Shokirov T. O'zbek milliy maqom san'atida ko'p ovozlik masalalari	257
Egamberganova G. Blended learning approaches: combining traditional methods with technology for effective speaking practice	259
Yuldashev M. "Informatika fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari va zamonaviy tendensiyalari"	261
Yusubov J. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining ijtimoiy jihatdan rivojlantirish zarurati	264
Yakubov S. AQSH: multikulturalizm muqobil etnik siyosat sifatida	267
Yakubova F., Ro'zumova G. O'rta Osiyo davlatlarida xitoy tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishining o'rganilishi	271
Filologiya	
Abdullaev Z. A contrastive analysis of reduction-based informal forms of anthroponyms in uzbek and german	274
Abdirazzakova S. Kiberxavfsizlik terminlarining pragmatik xususiyatlari	278
Abdurakhmanova Z. The features of legal term translation and the essence of the pragmatic approach in the translation process	281
Abdusalomova D. Fojiali va garmonik dunyoqarash	284
Adilova F. The themes of home, nature, and redemption in Frances Burnett's works	287
Akhmedjanova D. Genesis of artistic psychologism in literary studies: scientific-theoretical foundations	290
Ahmadova U. Zamonaviy perifrastik leksika	293
Achilova N. Nemis va o'zbek tillarida hund-it animalizmining struktur va semantikasi	297
Yodgorova X., Asadov M. O'zbek tilidagi inson xarakteridagi sifat va holatni bildiruvchi iboralar hamda ularning ingliz tiliga tarjimai	300
Jurabayeva D., Jalolova Sh. Diachronic approach to the study of converb constructions of manner	303
Xiaowei Y. Research on language translation services for major sporting events	306
Madaminova M. Xurshid Davron she'riyatida voqeaband lirika	309
Majidova M. Issues of creating general analysis principles of kinesic gestures	312
Muratkhodjaeva F. Antroposentrik paradigmada kognitiv tilshunoslik nazariyasi	315
Mustafayev Sh. Virtual kommunikativ makonning o'ziga xos xususiyatlari	318
Otaxonova M., Ergashova B. Italyan tilida undov so'zlarining nutq emotsionalligini oshirishdagi o'rni (Manzonining "I Promessi sposi" asari misolida)	321
Ochilov X. Ingliz va o'zbek tillarida insonning ma'naviy dunyosi tushunchalarining lingvokulturologik xususiyatlari	325
Samandarova N. Fransuz va o'zbek tillarida direktiv fe'llarning funksional-semantik xususiyatlari	328
Saparov M. Neyrolingvistik tadqiqotlarda miya faoliyati talqini va tahlilining nazariy asoslari	331
Turg'unova F. O'zbek va ingliz sarlavhalarida grammatik kompressiyaning o'quvchi psixologiyasiga ta'siri lingvistik va pragmatik yondashuv	334
Tursunova M. Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari	337
Usmonova Sh. Gazeta matnida antistandardlik hodisasi	340
Xasanov N. Ahmad Yassaviyning Anado'ludagi izdoshi – Aziz Mahmud Hudoiy	343
Ergashova B. O'zbek folklorshunosligining tarixi va taraqqiyoti	346
Yunusov M. Davlat organlarida mediasavodxonlikning rivojlanish tarixi	349
Yaqubova Y. The concept of stepmotherhood and its influence on negative character	352



UDK: 81'42 (81-119)

Shaxboz MUSTAFAYEV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: yagonapochta@gmail.com

JIDU katta o'qituvchisi M.Madraximova taqrizi asosida

VIRTUAL KOMMUNIKATIV MAKONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqola virtual muloqot va uning xususiyatlarini, shuningdek, virtual reallik tushunchasini o'rganishga bag'ishlangan. Unda kommunikatsiyaning yangi shakllari, ayniqsa, internet va kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual makon orqali amalga oshirilayotgan o'zaro aloqalar tahlil qilinadi. Virtual muloqotning o'ziga xos jihatlari, masalan, axborotning subyektivligi, gipermatnlilik, globallik, anonimlik va kreativlik kabilar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, virtual kommunikatsiyaning zamonaviy jamiyatga ta'siri va uning o'zgarayotgan madaniyatlar bilan bog'liqligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, virtual reallik, kommunikativ makon, interaktivlik, gipermatnlilik.

ОСОБЕННОСТИ ВИРТУАЛЬНОГО КОММУНИКАТИВНОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация: Статья посвящена изучению виртуального общения и особенностей виртуальной реальности. Рассматриваются новые формы коммуникации, возникающие благодаря интернету и компьютерным технологиям, а также особенности виртуального пространства, такие как субъективность информации, гипертекстовость, глобальность, анонимность и креативность. Также обсуждается влияние виртуальной коммуникации на современное общество и её связь с изменяющимися культурами.

Ключевые слова: виртуальная общения, виртуальная реальность, коммуникативное пространство, интерактивность, гипертекстуальность.

THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE VIRTUAL COMMUNICATIVE SPACE

Annotation

The article explores virtual communication and the concept of virtual reality, examining new forms of communication facilitated by the internet and computer technologies. It analyzes the specific characteristics of virtual space, such as the subjectivity of information, hypertextuality, globality, anonymity, and creativity. The article also discusses the impact of virtual communication on contemporary society and its relation to changing cultures.

Key words: virtual communication, virtual reality, communicative space, interactivity, hypertextuality.

Kirish. Kommunikatsiyani kommunikativ makon kontekstida ko'rib chiqish kerak, negaki aynan u muloqotning usuli va doirasini, kommunikatsiya ishtirokchilarini va ular tomonidan tanlanadigan muloqot vositalarini, o'zaro munosabatning vaqt va makon faktorini belgilab beradi. Kommunikativ makon tushunchasi rus olimi B.M Gasparov tomonidan kiritilgan [1]. Kommunikativ makon ostida insonlar va bir guruh odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kechadigan bir muhit tushuniladi.

Manuel Kastelsning fikriga ko'ra, "madaniyatlar kommunikatsion jarayonlardan hosil bo'lgan" [2]. Kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan jamiyatning madaniy rivojlanishi o'zagara boshlaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatishni ta'minlab, muloqotga audio va video kanallarni integratsiya qilish imkonini beradi hamda dunyoning turli burchaklaridan bo'lgan ko'plab ishtirokchilarni bevosita bog'laydi. Bizning hayotimizga kirib kelgan kompyuterlar nafaqat axborot almashinuvi usullarini, balki kommunikatsiya jarayonlari haqidagi tasavvurlarimizni ham tubdan o'zgartirdi. Shuning uchun ham kompyuter yordamida amalga oshadigan muloqotni kommunikatsiyaning yangi turi sifatida ajratish to'g'ri bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Virtual kommunikatsiya nazariyachilari sifatida J. Bodriyar, M. Kastels, N. Luman, M. Maklyuen, J. Sempsi kabilarni aytishimiz mumkin. Elektron kommunikatsiyaning yangi va ancha zamonaviy tadqiqotchilari safiga M. Vizel, D.

Gorchev, D. Andersen, P. Uols, S. Kisler va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ularning tadqiqotlarida jamiyat muloqot olami sifatida tasvirlangan, ya'ni unda yangi axborot vositalari insonlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasida eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Virtuallik" va "virtual reallik" atamalarini internet tarmog'i yaratilgandan so'ng dokladlarda, tezislarida, maqolalarda, dissertatsiyalarda va boshqalarda ishlatilgan "mashxur" so'zlar bo'lgan. Hozirda lingvistika uchun "diskurs", "konsept", "freym" va boshqalar mashxur so'zlar hisolanadi, negaki ularning har biri bir necha xil talqin qilinadi.

Kompyuter muloqoti "virtual" (lotincha virtualis so'zidan kelib chiqqan bo'lib – "ehtimoliy" ma'nosini beradi) so'zini keng muomalaga kiritdi. Bungacha "virtual" so'zi falsafada keng qo'llanilgan. XVIII asr oxirida atama mexanikada, XIX asrdan esa optikada qo'llanilgan. XX asrda atama mexanikada, ergonomikada, teologiyada va elementar zarralar fizikasida qo'llanila boshlaydi. XX asr oxiridan esa informatsion texnologiyalar lug'atidan muqim joy egallagan.

O'zbek tili izohli lug'atlarida hali "virtual" atamasi mavjud emasligi sabab atamaning talqinini chet el kitoblari qidiramiz. Hozirgi izohli lug'atlar va internet manbalariga ko'ra "virtual" quyidagicha talqin etiladi:

muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan», yoki mavjud bo'lmagan, lekin amalga oshish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayon [3];

yashirin, ammo yuzaga chiqarish mumkin bo'lgan [4];

virtual reallik - kompyuter tomonidan yaratilgan, voqelikni barcha xususiyatlarini jamlagan, o'zaro munosabatga kirishish imkoni bo'lgan holat [5];

ma'lum sharoitlar bo'lsagina yuzaga chiqadishi mumkin bo'lgan, ehtimoli bor [6];

ma'lum sharoitlardagina yuzaga chiqishi mumkin yoki kerak bo'lgan, ehtimoliy [7];

mavjud bo'lgan, lekin haqiqiy bo'lmagan [8];

tasavvur natijasi sifatida ongda mavjud bo'lgan [9];

jismonan mavjud bo'lmagan, ammo dasturiy ta'minot tufayli shunday ko'rindigan [10];

faqat dasturiy ta'minot tufayli paydo bo'ladigan va mavjud bo'ladigan [11].

“Virtual reallik” tushunchasi kompyuter texnologiyalari orqali yaratilgan olamni anglatadi. U ayni mavjud emas, lekin kompyuter inson sezgilariga ta'sir qilib unda illyuziya hosil qilishi mumkin. Falsafada va boshqa fanlarda tafakkurning yangi paradigmasi bo'lgan virtual tafakkur paydo bo'lmoqda. Falsafada “virtual reallik” fenomenini tadqiq qilish bilan shug'ullangan I.A. Akhurin, Bergson, E.A. Mamchur, S.S. Xorujiy va b., psixologiyada – A.E. Voyskunskiy, N.A. Nosov, sotsiologiyada esa M. Kastels, P. Berger va T. Lukmanlarning hissi katta.

Virtual obyektlar shu yerda va ayni vaqtda mavjuddir, jarayon tugashi bilan ular yo'qoladi. Virtual reallik o'zining makoni va zamoniga ega, o'zining qonunlariga asosan faoliyat olib boradi va shuning uchun ham haqiqiy mavjud obyektlardan mustaqildir.

Zamonaviy falsafiy lug'at “virtual” terminini quyidagicha izohlaydi: “olingan, biroq hali yuzaga chiqmagan; u shuki, o'ta sezgir mohiyat ustiga qo'yilgan va amalga oshishi mumkin” [12]. Falsafa ensiklopediyasida “voqelik” ta'rifi quyidagicha: “haqiqatda mavjud bo'lgan narsa: voqelik - shunday narsaki, u mavjuddir, mavjud bo'lgan narsalarning umumiyligidir” [13].

Tahlil va natijalar. Virtual - bu soxtalik degani emas. Virtuallik - voqelikda uchramaydigan real hodisalarning real makoni sifatida chiqadi. D. Galkinga ko'ra “virtual diskurs go'yo kommunikativ tabiatni o'zgartirib qo'ygandek — harf va so'zlar, tovush va obrazlar, jism va narsalar raqamlarga almashtirilgan, shuning uchun ular virtual, shuning uchun ular o'ziga xos imkoniyatlarga ega” [14].

“Virtual reallik matnlar yordamida yaratiladi, xuddi badiiy asar muallifi ekspozitsiya yaratgani kabi. An'anaviy yozma matndan farqli o'laroq virtual dunyo bir-biri bilan “chinakamiga” suhbatlashadigan “haqiqiy” odamlarga to'la... Elektron jamoa “hayot”ni odatdagidek, real hayotdagidek amalga oshiradi” [15].

Chet el virtual reallik tadqiqotchilari virtual reallikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashadi va u «virtual reallikning beshta “i”»si («VR's five “i”s») deb nomlanadi, ular: illyustrativlik, immersivlik, interaktivlik, intuiativlik,

Mira Bergelsonga ko'ra virtual kommunikatsiyaning xususiyatlari [21]

Virtual kommunikatsiyaning xususiyatlari	vositachilik
	masofalilik
	interaktivlik
	globallik
	ishtirokchilarning anonimligi (ko'p hollarda)
	shaxsiy va ijtimoiy tenglik hosil qilish uchun keng imkoniyatlar
	statusli ierarxiyaning yo'qligi, ijtimoiy normalarning noaniqligi va rivojlanmaganligi
	kommunikatsion jarayonlarning marginalizatsiyasi va karvanalizatsiyasi

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada biz “virtual”, “virtual reallik” tushunchalariga berilgan ta'riflarni, virtual kommunikativ makonning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqdik. Aytish mumkinki, virtual kommunikativ makon kompyuter dasturiy ta'minotlari tufayli paydo bo'lgan va faqat ma'lum shart-sharoit bo'lgandagina vujudga keladigan jarayondir.

Kommunikatsiyani faqat an'anaviy makon va zamon kontekstida emas, balki zamonaviy texnologiyalar orqali yaratilgan virtual makon nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish zarur.

intensivlik (illustrative, immersive, interactive, intuitive, intensive). Illyustrativlik axborot taqdim etishni aniq va ravshan qilib ko'rsatadi. Immersivlik subyektni virtual dunyoga sho'ng'ish darajasini ko'rsatadi. Interaktivlik foydalanuvchining kompyuter bilan o'zaro munosabatini ifodalaydi. Intuiativlik subyekt tomonidan virtual reallikni qay darajada his etishini ko'rsatadi. Intensivlik subyektni axborotni taqdim etish xususiyati bilan beriladi [16].

Nemis sotsiologi A. Byul o'zining “Виртуальное общество 21 века. Социальные изменения в дигитальную эпоху” kitobida virtual reallikning quyidagi xususiyatlarini keltiradi [17]: sho'ng'ish, o'lchamlilik, multisensorika, real vaqt, adekvatlik, interaktsiya, o'tkazuvchanlik, reallik effekti va ko'p ishtirokchilar effekti.

Nina Asmus fikriga ko'ra virtual kommunikativ makonning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud: axborotning subyektivligi, interaktivlik, gipermatnlilik, kreativlik, globallik, anonimlik va mozaikalik [18].

Suhbatdoshlar tomonidan yuboriladigan axborotlar insonning jisimiy, ruhiy va ijtimoiy mohiyatiga dahl qiladigan fikrlar va baholar bilan bo'yalgan. Individing shaxsiy “men”i va subyektiv nuqtai nazari yangi muloqot muhitida o'z o'rmini topishning yagona usulidir. Shu sababli ham axborotning subyektivligi virtual jamiyatning o'ziga xos jihatidir.

Virtual muloqotning yana bir o'ziga xos xususiyati bu gipermatnlilikdir. Gipermatn deganda matnni ixcham va qulay ko'rinishda ifodalanishi va matn bo'laklari bir biri bilan bog'liq holda ishlashi va matnni giperbog'lashlar orqali ifodalash tushuniladi. Gipermatn Internetga ma'lumotlarni yaratish, saqlash va uzatishning barcha uchun ochiq vositasi sifatida o'tmoqda. Virtual makonning yana bir o'ziga xos xususiyati - globallik. Bu so'z ostida biz muloqot jarayonida har qanday to'siqlarni “yo'q bo'lishi”ni tushunishimiz mumkin, xoh u makon-zamon chegarasi bo'lsin, xoh ijtimoiy, jinsiy, irqiy va boshqa belgilari bo'lsin. Internet “globalashmoqda”: u har narsaga ega chiqmoqchi va inson faoliyatining barcha sohalariga “yopishib olishga” harakat qilmoqda [19].

Butunjahon o'rgimchak to'ri virtual reallikda o'z dunyosini yaratishga erishdi. Hozirda har bir “foydalanuvchi” virtual voqelikda o'z “dunyo”sini yaratishi mumkin. Virtual dunyoda barcha “kreativ”dir, negaki ular muloqot jarayonini yanada qiziqarliroq qilishga harakat qiladi. Shu ma'noda Internet tarmog'ida barcha “yozuvchi”ga aylanadi, lekin ayni vaqtda “o'quvchi” bo'lib qolishadi [20]. Virtual makonning yana bir muhim xususiyati - anonimlik. Bunda ishtirokchi haqida uning muloqot usulidan bo'lak hech narsa ma'lum emas: na kimligi va na jinsi. Anonimlik shunday bir jihatki, bunda ishtirokchi yangi virtual olamda o'zini voqelikdagidek tutmaydi, balki voqelikda ko'rsata olmaydigan yoki ololmagan qirralarini aynan virtual olamda ko'rsatadi. Virtual muhit tuzilish jihatidan ierarxik emas, ko'proq mozaikdir.

Virtual reallik va virtual kommunikatsiya tushunchalari orqali mualliflar texnologiyalar yordamida yaratilgan yangi kommunikatsion makon va uning ijtimoiy, psixologik va falsafiy xususiyatlarini tahlil qiladilar. Kompyuter va internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida virtual kommunikatsiya an'anaviy kommunikatsiya usullarini o'zgartirgan, yangi xususiyatlarga ega bo'lgan bir makonni shakllantirgan. Bunda, virtual reallikda vaqt va makon cheklovlarini yo'qoladi, yangi interaktiv va immersiv usullar paydo bo'ladi. Bu jarayon insonlarning o'zaro aloqalari va madaniy rivojlanishiga ta'sir etmoqda.

Virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari bor: axborotning subyektivligi, gipermatnlilik, globallik, anonimlik va kreativlik kabi jihatlari virtual makonning asosiy belgilari hisoblanadi. Shuningdek, virtual kommunikatsiya shaxsiy va ijtimoiy tenglikni yaratish, kommunikatsion jarayonlarni soddalashtirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, virtual reallik va virtual kommunikatsiyaning rivojlanishi kommunikatsiya jarayonlarini yanada murakkablashtirgan, yangi va o'ziga xos xususiyatlarga ega kommunikativ makonning shakllanishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Гаспаров Б. М. Язык. Память. Образ. Лингвистика языкового существования. - М.: "Новое литературное обозрение", 1996. - 352с.
2. Кастельс. Информационная эпоха. Экономика, общество, культура. - М., 2000: 351. - 606 с.
3. <http://uz.infocom.uz/2010/06/01/virtual-reallikka-asoslangan-talimiy-resurslar/>
4. <https://dizionario.repubblica.it/Italiano/V/virtuale.html>
5. <https://www.treccani.it/vocabolario/virtuale/>
6. Ефремова Т. Ф. Толковый словарь словообразовательных единиц русского языка. - М.: Русский язык, 1996. - ISBN 5-200-01767-X
7. Ефремова Т. Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный. - М.: Русский язык, 2000.
8. Longman Dictionary of Contemporary English, 2nd ed. 1987. Harlow: Longman.
9. American Heritage Dictionary of the English Language, Fifth Edition. Houghton Mifflin Harcourt, 2015 - 2112 p.
10. H.W. Fowler. The concise Oxford Dictionary of current English. Published by Oxford, Clarendon Press, 1952.
11. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. Front Cover. Albert Sydney Hornby. Oxford University Press, 2015 - Foreign Language Study - 1820 pages.
12. Кемеров, В. Е. Современный философский словарь / Под общ. ред. Кемерова В. Е. , Керимова Т. Х. - 4-е изд. , испр. и доп. - Москва: Академический Проект, 2020. - 823 с.
13. Новая философская энциклопедия. 2-е изд., испр. и доп. - М.: Мысль, 2010. - 2816 с.
14. Галкин Д. Виртуальный дискурс в культуре постмодерна // Критика и семиотика. - Вып. 1. - Томск: ТГУ, 2000. - С. 173-191
15. Langham, D. The common place MOO: Orality and literacy in virtual reality. Computer-Mediated Communication Magazine, 1994, 3.
16. Hammett F. Virtual reality and the exploration of cyberspace. - N.Y.: Carmel Indiana Sams Publishing, 1993, - 230 p.
17. Бюль, А. Виртуальное общество 21 века. Социальные изменения в дигитальную эпоху Текст. // А. Бюль. М.: Канон, 1994. - 315 с. 55.
18. Асмус Н. Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства : Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 Челябинск, 2005. - 266 с.
19. Степаненко Е.А., Степаненко С.Б. Интернет как явление культуры: тексты в сетевом контексте – Социальные и психологические последствия применения информационных технологий: материалы междунар. интернет-конф. – Москва, 2001. - С. 179-186
20. Эко У. От интернета к Гуттенбергу: текст и гипертекст // Интернет. М., 1998. №6-7. С. 91 – 92
21. Бергельсон, М. Б. Языковые аспекты виртуальной коммуникации // Вестник МГУ сер.19 № 1, 2002